# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

№ 3/1 2024






*гуманитарные науки*
*естественные науки*
*технические науки*









ISSN 2181-7138

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

## *2024*

## 3/1-сан

***Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды***

***Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.***

Нөкис

# 3/1-сан *2024*

*март*

***Шөлкемлестириўшилер:***

***Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги, ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы***



**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Вохид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ

# МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

**Тилеумуратова Г.Т.** Қорақалпоқ адабиётин ўқитишда халқ оғзаки ижодидадан фойдаланиш усуллари ........ 9
**Aytbayev D.T.** Ergash gapli qo‘shma gaplarda diktum va modusning ifodalanishi ........ 13
**Mamarizayeva F.Z.** Tarjimada badiiy asar uslubini saqlashning turli strategiyalari va bu jarayonning o’ziga xosligi (S.Ahmadning “Jimjitlik” asari misolida) ........ 17
**Qurbonova D.A.** Neyrolingvistikaning fan sifatidagi ahamiyati ........ 22
**Odiljonova K.A.** Leksikologiya hamda uni o’qitishga doir o’quv materiallari mazmuni hamda o’quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish hamda so’zdan foydalana olishning mavjud ahvoli ........ 27
**Sultonkulov O.J.** Zamonaviy tilshunoslikda “Vaqt” konseptini pragmatik jihatdan o‘rganish masalalari ........ 34
**Еркибаева Г.Г., Турсыналиева Г.Б., Абдикаримов А.** Фразеологические словари и фразеологическая компетенция ........ 39
**Otabayev M. N.** The role of games in teaching English ........ 45
**Majidova G.** Strategies for developing students’ critical thinking skills in teaching foreign languages ........ 49

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

**Turumbetova A.** Oqiw sabaqlarinan tisqari dógerek jumislarin ótkeriw metodikasi ........ 54
**Temirbekova A.O., Sarıbaeva B.** Jáhán tálim sistemasında - tálim ........ 63
**Тулишов Ғ.** Талабаларда креативликни баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари ........ 67
**Ismadiyarova U.A.** Ma’naviy-ahloqiy tarbiya mexanizmlarini etnopsixologik qadriyatlar asosida takomillashtirish ........ 73
**Юсупов С. С.** Таълим-тарбия тизимини бошқарувида раҳбарлик ва ташкилотчилик фаолиятининг педагогик асослари ........ 80
**Абдураҳимов Қ.А.** Тафаккур жараёнига айтиб туришларнинг таъсири ва роли ........ 89
**Рўзиматов Э.Й., Рўзиматов Э.Э.** Замонавий ўқитувчи-келажак бунёдкори ........ 99
**Turdiqulova N.T.** Kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanishning samaradorligi ........ 103
**Хамрокулова Ш.Э.** Даволаш педагогикасининг фан сифатида ривожланиши ........ 113
**Содиков У., Жўраев А.** Масалаларни ечишда ўқувчиларда математик моделлаштириш кўникмаларини шакллантириш ........ 120
**Абдуллаева Г.А.** Маънавий тарбияни миқдорий хусусиятлари ........ 125
**Хайдарова Х.Р.** Ёшлардаги ахборот-виртуал саводхонликни ривожлантиришда рақамли медианинг роли ........ 130
**Хамрокулова Ш.Э.** Экологик тарбия механизмларини такомиллаштиришнинг методологик асослари ........ 135
**Худайназаров Т.А.** Талабалар ўқув фаолияти самарадорлигини таъминлашда рағбат ва жазо феноменларининг роли ........ 141
**Аҳрарова З.Б.** Маънавий - ахлоқий тарбия жараёнларида Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ижтимоий – педагогик меросидан фойдаланиш ........ 148
**Jumabaev A.D.** Axloqiy ta’limda qo’llaniladigan usullar va texnologiyalarning o’ziga xos xususiyatlari ........ 154
**Xushbaqov D. Q., Sodiqov U. J.** Talabalarda mental dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ........ 163
**Sultansaidova M.A.** Xorijiy tajribalar asosida bo’lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish ........ 170
**Абдурахимова Д.А.** Интегратив ёндашув асосида бўлажак офицерларнинг ахлоқий-руҳий, жанговар компетентлигини ривожлантиришда маънавий маданиятнинг роли ........ 175
**Mirzayev Sh.T.** Harbiy ta’lim fakultetlari talabalarining innovatsion fikrlashlarini rivojlantirish omillari ........ 182

**Орлова Т.А.** Иммерсивные технологии - как средство развивающего аспекта в обучении астрономии студентов педагогических вузов ........ 329
**Mamatoxunov Yo.A.** Integration of modern technologies into the educational process: analysing the impact on learning outcomes in physics ........ 336

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

**Ixlasov I.** Baslawısh klasslarda lingvistikalıq kompetensiyaǵa tiykarlanǵan qatnaslardı qáliplestiriwde kompetensiyanıń mazmun hám mánisi ........ 342
**Xurvalieva T.L.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional zo’riqishning kelib chiqish sabablari va uning yechimlari ........ 346
**Narimbayeva L.K.** Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotinii boshqarish ........ 350
**Shanasirova Z.Y.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining boshqaruv jarayonini takomillashtirishda pedagogik mahorat ko‘nikmalarini rivojlantirish ........ 355
**Nosirova R. X.** Steam ta`lim texnologiyalari, maktabgacha ta’limni rivojlantirishning innovatsion yo’nalishi sifatida ........ 359
**Abdullayev A.A.** Boshlang’ich sinf jismoniy tarbiya darslarida innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo’llash xususiyatlari ........ 363
**O’razaliyeva S. T.** Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisiga qo‘yiladigan zamonaviy pedagogik va kasbiy talablar ........ 366
**Davletmuratova E., Orazbaeva G.** O‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik tuygusini tarbiyalashda xalq pedagogikasining ahamiyati ........ 370
**Azamatova D. Sh.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’yin faoliyatining turlari ........ 374
**Maripova N.X.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatiga o’yinlarning ta’siri ........ 378
**Xidoyatova N.A.** Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqaruv jarayonini takomillashtirish ........ 381
**Achilova M. S.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning pedagogik asoslari ........ 386
**Mutalova D. A.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish ........ 391
**Kasimova N. D., Tojiddinova Z.** O’smir - o’quvchilarni kompyuter o’yinlari vositasi yordamida ta’lim sifatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari ........ 395
**Tursunboyeva M. D.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarida ma’naviy sifatlarni tarbiyalash ........ 402
**Abduraximov D.D.** Milliy harakatli o‘ynlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ahloqiy tarbiyalash ........ 406
**G‘anixo‘jayev A.Sh.** Aqliy va jismoniy salomatlikning bog‘liqligi ........ 410
**Muratova M.O‘.** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakillantirishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati ........ 413
**Babyeva D.R.,Ochilova X.Sh.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvning zaruriyati ........ 418
**Ergasheva B.Z.** Modernizatsiyalash sharoitida oliy ta’lim tashkilotlarining bo‘lajak tarbiyachilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik muammolari ........ 423
**Eshmamatova S.T.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda psixologik moslashuvchanlik mexanizmlarini takomillashtirish ........ 426
**Buriyeva A.N.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta’limiy o‘yinlarning didaktik ta’minotini yaratishga oid turli yondoshuvlar ........ 429
**Ilyosboyev S.B.** Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etish yo`llari ........ 434
**Aybotayeva M.X.** Maktabgacha ta’limda qo‘llaniladigan o‘yinlarni tashkil etish yo`llari ........ 438
**Eshboyeva D.D.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish ........ 442
**Adilbaeva G.Y.** Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ekologik tarbiya ........ 446
**Adilbaeva G.Y.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllari ........ 452

# BOSHLANG'ICH SINF JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH XUSUSIYATLARI

***Abdullayev A.A.***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*
*Bolalar sporti kafedrasi mudiri dots., p.f.f.d.(PhD)*

**Tayanch so'zlar:** pedagog, boshlang'ich sinf, innovatsiya, ta'lim texnologiyasi, metod, o'quvchi, o'qituvchi.

**Ключевые слова:** педагог, начальный класс, инновация, технология обучения, метод, ученик, учитель.

**Key words:** pedagogue, elementary class, innovation, learning technology, method, student, teacher.

"Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi?! Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi". Prezident Shavkat Mirziyoyevning yangilik yaratishga, innovatsiyani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bu fikrlari qonunchilikda ham aks etmoqda. "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgani buning amaliy ifodasidir.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo`nalishi sifatida e'tirof etilgan. «Bugungi kunda oldimizga qo`yilgan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri eng avvalo, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas boq`liq» O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi asosiy tamoyillardan biri - bu ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatidan isloh qilish uchun o`qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo`yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg`unlashtirish, ilg`or pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish

hisoblanadi. Ammo ilg`or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o`z-o`zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o`qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga boq`liq jarayon. O`qituvchi faoliyatini o`zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo`lmaydi.

O`qituvchi innovatsion faoliyatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo`llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o`zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas boq`liq.

Innovatsiya - amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo`lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo`naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir.

Boshlang'ich ta'lim tizimida ham juda salmoqli ishlar olib borilmoqda. Boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflarni o'z ichiga oladi. Bu tizimda jismoniy tarbiya darslari jarayonidagi innovatsion yondashuvlar, hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Chunki yangi innovatsion texnologiyalar bilan ishlash uchun, bu sohada malakali kadrlarni bo'lishi juda muhim bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim jismoniy tarbiya darslarida innovatsion yondashuvlar jarayonida pedagogik texnologiya termini mavjud bo'lib, bunda pedagogik texnologiyalar orqali ta'lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalarni qo'llash usuli hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslari asosan amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lgani uchun o'qitishda "Musobaqa", "Ko'r¬satmali", "O'yin", "Muammoli o'qitish texnologiyasi" kabi innovatsion pedagogik texnologiya va metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Misol tariqasida boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiya darslarida "To'pni 11 metrlik jarimadan darvozaga yo'llash texnikasini o'rgatish" mavzusidagi mashg'ulot maqsadi ularda jismoniy sifatlar va jismoniy tayyorgarligini oshirish bo'lsa, uning vazifasi o'quvchilarni harakatli va sport o'yinlariga jalb etish orqali ularni jismoniy faolligini oshirish va tanasini to'g'ri shakllanishini ta'minlashdan iborat.

Mavzu bo'yicha DTS hamda o'quv dasturida quyidagi rejalar beriladi:

1. oyoq yuz qismi bilan darvozaga yo'llash;
2. oyoq o'ng yon qismi bilan darvozaga yo'llash;
3. oyoq chap yon qismi bilan darvozaga yo'llash;
4. oyoq uchi bilan darvozaga yo'llash.

Bu jarayonda muammoli o'qitish ta'lim texnologiyasidan quyidagicha foydalaniladi.

Darsda “To’pni 11metrlik jarimadan darvozaga yo’llash texnikasini o’rgatish” mavzusi yuzasidan o’quvchilarga kerakli nazariy bilimlar beriladi. Ushbu mavzuning maqsad, vazifalari va dolzarbligi tushuntirilgandan so’ng, o’quvchilarga topshiriqlar beriladi. Ya’ni o’quvchilar ikkita jamoaga bo’linib, o’z darvozalari oldida saflanib turadilar. Topshiriq shundan iboratki, o’quvchilar o’z darvozalariga 11 metrdan darvozaga to’p kiritishlari lozim bo’ladi.

O’qituvchi o’quvchilarga DTS va o’quv dasturida belgilangan to’pni darvozaga yo’llash usullarini tushuntirib o’tadi. Shundan so’ng o’quvchilar to’pni darvozaga yo’llashga kirishadi. Ba’zi o’quvchilar darvozaga to’p kiritadilar, ba’zilari esa buni uddalay olmaydilar. Dars so’nggida bu harakat uyga vazifa qilib beriladi hamda kelasi dars barcha o’quvchilar bu harakatni mukammal o’rganib kelishlari talab etiladi.

Bu mavzuning muammoli o’qitish texnologiyasi shundaki, o’quvchilar bu harakatni o’rganishlari uchun albatta kutubxonaga kirib, o’zlari uchun kerakli kitobni olib, aynan 11 metrlik tepish usullarini o’rganishga kirishadilar. Biz bundan o’quvchining ham harakatni mukammal egallayotganligi hamda kitobxonlik savodxonligi darajasini oshirishga erishamiz. Bunga sabab boshlang’ich sinf o’quvchilari aynan o’qishga chanqoq yosh davri hisoblanadi. Ular berilgan vazifani tezroq, mukammal o’rganishga, hammadan birinchi bo’lishga intiladi. Bu esa o’z navbatida mavzu yuzasidan ham bilimlarini, ham ko’nikmalarini shakllanishiga

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang’ich sinf o’quvchilari jismoniy tarbiya darslarida muammoli o’qitish texnologiyasi asosida dars olib borish bu haqiqiy innovatsiya hisoblanadi. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo’lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi – loyihaga, loyohani – texnologiyaga aylantirishga yo’naltirilgan faoliyatdir.

**Adabiyotlar:**

1. Uzluksiz ta`lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolar‖ Ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU nashri.

2. F.Zakirova va boshq.Elektron o`quv-metodik majmualar vat a`lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo`lkanma, T.: OO`MTV, 2010. – 57b.

**РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqola boshlang’ich sinf jismoniy tarbiya darslarida innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo’llash borasida fikrlar keltirilgan bo‘lib, unda ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan ta’lim metodlari borasida fikr yuritilgan.

**РЕЗЮМЕ**

В этой статье дается обзор того, как использовать инновационные технологии обучения на уроке физкультуры в начальной школе, в котором основное внимание уделяется методам обучения, используемым в образовательной практике.

**SUMMARY**

This article gives an overview on how to use innovative learning technologies in the elementary school physical education lesson, which focuses on teaching methods used in educational practice.